

SHAROF RASHIDOVNING “QUDRATLI TO’LQIN” ROMANIDA
ANTONIMLARNING ROLI

G‘ayratova Gulzoda San‘at qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1-bosqich magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada zid ma’noli birliklarning Sharof Rashidovning “Qudratli to’lqin” asarida qo’llanilishi va ularning stilistik xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Antonimiya, leksik ma’no, differential semalar, grammatik antonimiya, “Qudratli to’lqin”.

Olamdagi narsa va hodisalarni kuzatsangiz, ular taraqqiyotining asosida muntazam qarshiliklar, ziddiyatlar yotganligining guvohi bo‘lishingiz mumkin. Qarama-qarshiliklar qonuni dunyo taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biri sanaladi. Turgan gapki, bu qarama-qarshiliklar tilda ham o‘z aksini topgan. Yaxshilik bilan yomonlik, oqlik bilan qoralik, yorug’lik bilan qorong’ilik o‘rtasidagi ziddiyatlar asosida son-sanoqsiz qarama-qarshiliklar yuzaga kelganki, ularni ifodalash uchun har bir holatda alohida til birlklari jalb qilingan. Bu esa o‘z navbatida tilda yangi bir hodisaning paydo bo‘lishiga olib kelgan. Bu til hodisasi antonimiya, qarama-qarshi ma’noli so‘zlar esa antonimlar atamasi bilan yuritiladi. Antonimiya so‘zi grekcha anti-zid, onyma—nom so‘zlaridan olingan.

Leksik ma’no (semema) muayyan komponentlardan semalardan tashkil topgan bo‘ladi. Antonimik juftlikni tashkil qilayotgan umumiylar semalar ichida shu hodisani yuzaga chiqaruvchi bitta differential sema ham mavjud bo‘ladiki, shu sema asosida narsalar bir-biriga zidlanadi. Masalan, ikkita ko‘ylak material, bichim, tikuvchi, iste’molchi semalari bo‘yicha bir xil bo‘lishi mumkin, ammo rang semasida ulardan bittasi oq, bittasi qora bo‘lsa, mana shuning o‘zi ularni bir-biriga zidlash uchun kifoya qiladi. Yoxud ikkinchi holatda rang semasi ham bir xil bo‘lib razmer semasida biri tor, ikkinchisi keng bo‘lsa ham antonimiya hodisasi kelib chiqadi. Demak, differential semalar asosidagina antonimiya hodisasi kelib chiqar ekan.

Antonim leksemalar asosida qarama-qarshi tushuncha mavjud bo‘lib, u qarama-qarshi hodisaning borliqda aks etishi. Antonim leksemalar bir guruuhga mansub giponim leksemalardir: [issiq]-[sovuq] (harakat), [katta]-[kichik] (kattalik), [erkak]-[ayol] (jins) va hokazo.

Antonimlarning mantiqiy asosini ikki xil qarama-qarshilik tashkil etadi:

- a) qarama-qarshilik;
- b) to‘ldiruvchi qarama-qarshilik.

Qarama-qarshilik – daraja leksemadagi “farqning tafovutga, farqning konfliktga, ya’ni qarama-qarshilikka o‘sishi” natijasida birinchi a’zo va oxirgi a’zoning antonimlashuvi. Masalan, [kichik]-[o’rta]-[kattalar], [yosh]-[o’smir]-[o’rta yosh]-[qari] Bunda [kichik] va [katta], [yosh] va [qari] leksemalari daraja qatorining ikki qarama-qarshi qator a’zolari o‘rtasida ikki antonimni o‘zida mujassamlashtirgan bog‘lovchi bog‘lovchilardir. Yuqorida [o’rta] leksemada [kichik] va [katta] leksemalarining qarama-qarshiligi tugaydi. Demak, leksemalarning qarama-qarshilagini ularning darajalash (graduonimik) qatoridan kuzatish kerak. To‘ldiruvchi antonimiyada qarama-qarshilik uchinchi bo‘lib, oraliq bo‘g‘insiz: [rost]-[yolg‘on], [arzon]-[gimmat], [oson]-[kiyn] kabi. Bu leksemalar orasida uchinchi leksema mavjud emas.

Antonimlarni tahlil qilgan olimlar ular orasidagi ziddiyatlarda quyidagilar yotganligini ta’kidlaydi.

1. Gradual (darajalangan), koordinatsiya qilingan qarama-qarshiliklar: baland-past, toza-iflos, arzon- qimmat kabi.
2. Konversiya, ya’ni bir so‘z turkumidan ikkinchi so‘z turkumiga o‘tgan so‘zlardagi qarama-qarshiliklar: yosh-qari, katta-kichik, urush-tinchlik (sifatdan, fe’ldan otga o‘tish holati mavjud)
3. Ikkilangan, ya’ni bir tushunchaning dixotolik holatiga asoslangan ziddiyatlar tuzli-tuzsiz, aqli-aqlsiz, o‘rinli-noo‘rin singari.

**INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND
THEIR SOLUTIONS
VOLUME 3, ISSUE 2, 2024**

Demak, antonimlardagi ma’no ziddiyatini ochib berish uchun ularni qismlab, ya’ni semik tahlil qilish lozim. Ularni tashkil etgan barcha belgilar majmui-ideografik semalar ichidan differential semani ajratgan taqdirimizdagina antonimiya hodisasini anglashimiz, topishimiz mumkin.

Lingvistik adabiyotlarda antonimlarning turlari haqida har xil qarashlar bor. Ularga asoslangan holda birinchi galda antonimlarning quyidagi turlarini ajratib ko’rsatish lozim.

1. Lug’aviy antonimiya: og’ir-engil, keng-tor, o’g’il-qiz va shu kabilar

2. Grammatik antonimiya: uyli-uysiz, boobro‘-obro‘siz, serjahl-yuvosh kabi.

Lug’aviy antonimiyada o‘zak holatida til birliklarining qarama-qarshi ma’nolarni ifodalashi hisobga olinadi. Grammatik antonimiya esa morfemalar bilan yasash asosida ro‘y beradi.

Lug’aviy antonimiyani uchgaga bo‘lib o‘rganish mumkin.

a) leksik antonimiya; kech-erta, oq-qora, ingichka-yo‘g’on;

b) frazeologik antonimiya: yerga ursa, ko‘kka sakraydi — qo‘y og’zidan cho‘p olmagan, oq ko‘ngil - ichi qora kabi;

v) leksik — frazeologik antonimlar: xursand — ichini it tatalaydi, xafa— og’zi qulog’ida.

Ba’zi bir adabiyotlarda antonimlarni to‘la va yarim (chala, to‘liqsiz) kabi turlarga ajratish bor. O‘qigan-o‘qimagan, yur-yurma, ko‘ylakli-ko‘ylaksiz ko‘rinishidagi leksik birliklarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yib bo‘lmaydi. Ular oddiy inkorni ifodalayapti. Biror narsaga shaxsning ega yoki ega emasligini bildirmoqda. Bunga asoslanib ularni antonimlar deyish o‘rinli sanalmaydi. Antonimlar leksik ma’no anglatadigan sememalar orasida bo‘ladi.

Leksik ma’no tarkibiga kiruvchi semalar ideografik semalar hisoblanadi. Bosh (to‘g’ri) ma’noli semalar antonimiyani hosil qiladi; quyuq-suyuq, oq-qora, tor—keng.

Hosila (ko‘chma) ma’noli semalar ham antonimiyani yuzaga keltirish mumkin; to‘g’ri (odam) - egri (odam).

Sharof Rashidov she’riy va nasriy asarlarida zid ma’noli so’zlar asosida yuzaga keladigan tazod, zidlantirish, qarshilantirish san’atining betakror namunalarini yaratgan. Zid ma’noli so’zlardan foydalangan holda yozuvchi turli tushunchalar, belgilari, holatlar, qarshilantirish orqali ularni yanada ta’kidlash imkoniga ega bo‘ladi. Asarlarda qo’llanilgan leksik zid ma’nolik ot, sifat, ravish va fe’l turkumlariga oiddir. Sh. Rashidov ushbu romanida antonimlarning barcha ko‘rinishlari uchraydi. Jumladan, ular antiteza usuli bilan qo’llanilgan.

... yoshlar va keksalarning diliiga orom va quvonch bag’ishlangan lola sayili yaqindagina bo‘lgan edi. (9-bet)

Yoshlar , keksalar- zid ma’noli so’zlar orqali narsa-hodisalarini umumlashtirilib jamlangan. Ushbu umumlashtirish orqali fikr kuchli, ta’sirli va obrazli ifodalanishiga xizmat qilgan.

Ajoyib soy, qishda issiq, yozda sovuq suv oqadi. (16-bet)¹

Qishda issiq, yozda sovuq- antonimik juftlikdan foydalanib, birining ma’nosи kuchaytirilgan va alohida ta’kidlanib, tinglovchiga ta’sir etgan.

Po‘latning pasti baland kayfiyatidan, ba’zan qizib, ba’zansovub turishidan, ammo hamisha Bahorga bo‘lgan cheksiz g’amxo’rligidan sezilib turardi. (16-bet)

Qizimoq, sovimoq- zid ma’noli so’zlardan foydalanib, birining ma’nosи kuchaytirilgan ikkinchisiga nisbatan kuchayishiga turtki bo‘lgan.

...bosmachilarning hujumidan o‘zini mudofaa qilolgan mulla To’raxonning jasorati haqidagi mish-mish xabar butun bozor bo‘ylab tarqaldi. (38-bet)

Hujum, mudofaa- ushbu so’zlar matniy antonimlar yuzaga keltirib, mohiyatan antonim emas, antonimik munosabat aks etsa ham, bu yerda hech qanday antonim yo‘q. Darhaqiqat, leksik jihatdan so’zlar ayrim olinganda bir-birini tasdiq yo‘li bilan inkor etsagina antonim bo‘la oladi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. U.Tursunov, N.Muxtorov, Sh.Rahmatullaev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1992 yil.
2. O’zbek tilining imlo lug’ati. Toshkent. O’qituvchi. 1995 yil.

¹ Sharof Rashidov “Qudratli to’lqin” romani – O’QITUVCHI NASHIRIYOTI-1977

INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND
THEIR SOLUTIONS
VOLUME 3, ISSUE 2, 2024

3. M.Mirzayev va b. O`zbek tili, T.O`qituvchi, 1978.
4. Неъматов X., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикология асослари. –Тошкент, 1995. – 127 б.
5. Sharof Rashidov “Qudratli to’lqin” romani – O’QITUVCHI NASHIRIYOTI-1977